

## QO‘SHILGAN QIYMATNI TAQSIMLASHNING SAMARALI SOLIQ MEXANIZMIGA OID XORIJ TAJRIBALARI

**Axmedova Shaxnoza Ma'mur qizi**

Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi

Fiskal institut magistratura talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11115207>

**Annotatsiya.** Iqtisodiyotning erkinlashuvi jarayoni, fiskal siyosat va soliq to‘lovchilar soliq salohiyatini oshirish muammolarining keskinlashuvi, soliq tizimi modernizatsiyasining samarali vositalarini davlat tomonidan qo‘llash ko‘p jihatdan kushilgan qiymatni taqsimlash samarali soliq mexanizmi tashkil etilishiga ham bevosita bog‘liqdir. Bugungi kunda ko‘plab munozaralarga sabab bo‘layotgan soliq tizimi islohining alohida bir yo‘nalishi sifatida qo‘shilgan qiymatni taqsimlash samarali soliq mexanizmini tashkil etish yo‘nalishlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada qo‘shilgan qiymatni soliqqa tortish masalalari muhokama qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** milliy iqtisodiyot, budget, davlat budjeti, mahalliy budget, budget tizimi, budget daromadlari, budget xarajatlari, soliq, soliq tizimi, qo‘shilgan qiymat solig‘i, fiskal siyosat, makroiqtisodiy barqarorlik.

### FOREIGN EXPERIENCE ON AN EFFECTIVE TAX MECHANISM FOR THE DISTRIBUTION OF ADDED VALUE

**Abstract.** The process of economic liberalization, the aggravation of fiscal policy problems and the increase in the tax potential of taxpayers, the use by the state of effective means of modernizing the tax system in many ways, the distribution of added value also directly depends on the organization of an effective tax mechanism. It is important to study the directions of organizing an effective tax mechanism for the distribution of added value as a separate direction of the reform of the tax system, which today causes a lot of discussion. Based on this, this article discusses the issues of value added taxation.

**Keywords:** national economy, budget, state budget, local budget, budget system, budget revenues, budget expenditures, tax, tax system, value added tax, fiscal policy, macroeconomic stability.

### ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПО ЭФФЕКТИВНОМУ НАЛОГОВОМУ МЕХАНИЗМУ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ДОБАВЛЕННОЙ СТОИМОСТИ

**Аннотация.** Процесс либерализации экономики, обострение проблем фискальной политики и повышение налогового потенциала налогоплательщиков, применение государством эффективных средств модернизации налоговой системы во многом, распределение добавленной стоимости также напрямую зависит от организации эффективного налогового механизма. Важно изучить направления организации эффективного налогового механизма распределения добавленной стоимости как отдельного направления реформы налоговой системы, которое сегодня вызывает много дискуссий.

Исходя из этого, в данной статье рассматриваются вопросы налогообложения добавленной стоимости.

**Ключевые слова:** национальная экономика, бюджет, государственный бюджет, местный бюджет, бюджетная система, доходы бюджета, расходы бюджета, налог, налоговая система, налог на добавленную стоимость, налогово-бюджетная политика, макроэкономическая стабильность.

**Kirish.** Korxonalarining samarali faoliyat ko'rsatishi uchun xo'jalik mexanizmining barcha elementlari mukammal ishlashi zarur. Aynan shu yo'nalishda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibiga alohida e'tibor qaratish kerak. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tizimini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish muximdir.

Qo'shilgan qiymat solig'ining respublikamiz soliq amaliyotiga joriy etilishi davlat budjeti daromadlarini shakllantirishning barqaror manbasini yaratdi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlardagi kabi respublikamiz davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda ham qo'shilgan qiymat solig'i eng asosiy moliyaviy resurs hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, mazkur soliq mexanizmidagi mavjud muammolar soliq tizimiga va davlat budjeti daromadlarini shakllantirishga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda qo'shilgan qiymatni taqsimlashning soliq mexanizmini samarali shakllantirish masalalarining nazariy, metodologik va amaliy jihatlarini maxsus, mustaqil tadqiqot ob'ekti sifatida etarli darajada o'rganilmaganligi tanlangan mavzuning dolzarbligini va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini belgilab beradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Yangidan yaratilgan qiymatning nazariy asoslari A.Smit, D.Rikardo ishlarida, qo'shilgan qiymat kontseptsiyasi va ishlab chiqarish omillari kontseptsiyasi esa J. Sey, Dj. Klark asarlarida yaratilgan.

A.Marshall tadqiqotlari asosida yaratilgan iqtisodiy qo'shilgan qiymatning zamonaviy nazariyasi hozirgi kunda jahonning etakchi kompaniyalari tomonidan qiymatni yaratish jarayonida samarali qo'llanilib kelmokda.

Xorijiy tajribalar asosida QQS ma'muriyatchiligi samarali tadbirlarining metodologik jihatlarini o'rganishga B.X.Aliev [1], D.Bryummerxoff [2], A.A.Votchaev [3], S.V.Barulin [4], E.A.Ermakova [5] larning izlanishlari bag'ishlangan.

Mamlakatimiz milliy soliq tizimi va soliqqa tortish amaliyotini rivojlan-tirishga munosib hissa qo'shib kelayotgan olim va amaliyotchi mutaxassislarimizdan E.Gadoev [6], Sh.Gataulin [7], I.Zavalishina [8], T.S.Malikov [9], O.Olimjonov [10] larni misol keltirish mumkin. O'z mohiyatiga ko'ra, QQS iste'mol solig'i hisoblanganligi sababli uning ideal bazasi, ya'ni jami yakuniy iste'mol xarajatlari biznes tsikllari davomida bir muncha barqaror bo'lib, QQS bazasining ham barqarorligini nazarda tutadi[11]. Ammo, amaliyotda QQS daromatlari ba'zan YaIM yoki yakuniy iste'molga nisbatan ancha ta'sirchan hisoblanadi [12]. QQSning tashqi shoklarga nisbatan nobarqarorlik sabablarini aniqlashda uning samaradorlik darajasi va uni belgilovchi omillarni tadqiq etish muhim masaladir.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotning metodologik asosi bo'lib O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymatni taqsimlashning samarali soliq mexanizmini shakllantirish yo'nalishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari va me'yoriy xujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining fundamental asarlari, davlat tomonidan budjetning solikli

daromadlarini prognozlash, davlat soliq siyosati, dalat soliq menejmentiga doir iqtisodiy nazariya va ijtimoiy-iqtisodiy sistemologiya asoslari xizmat qiladi.

Ilmiy izlanish jarayonida tadqiqot olib borishning guruxlash, tizimli qiyosiy taxlil va tizimli yondashuv, iqtisodiy-matematik modellar, korrelyatsion, regression, ekspert va taqqoslama taxlili, bashoratlash, ma'lumotlarni statistik ishlanmasi, guruxlash metodlari va boshqa zamonaviy usullaridan foydalaniladi.

**Tahlil va natijalar.** Ma'lumki, har qanday mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab turish va inqirozlar oldini olish yuzasidan soliq siyosatini samarali yuritishda soliq mexanizmining dastaklari (imtiyoz va preferentsiyalar, maxsus rejim, chegirma va qayta hisoblashlar, investitsion soliq krediti va h.k.)dan keng foydalaniladi.

Avvalombor, rivojlangan davlatlar soliq amaliyotida hozirda bo'lgan soliq turlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda bizning soliq amaliyotimizdan farq qiluvchi, ayrim noan'anaviy soliqqa tortish ob'ektlari ham uchraydiki, ular bilan umumiy tarzda tanishib chiqish, tadqiqimiz uchun zarurdir. Ayniqsa, aktsizosti tovarlarni soliqqa tortishning samarali tadbirlari va ularning afzalliklarini jahon soliq amaliyoti tajribalari tasdiqlamoqda.

Ma'lumki, jahon mamlakatlari davlat boshqaruvi tizimida soliq organlari tuzilmasi faoliyatining uch turi uchrashi mumkin: bitta yoki bir nechta vazirliklar doirasidagi xizmat yoki agentlik; yagona yarim mustaqil organ; boshqaruv (kuzatuv) kengashiga hisobot beruvchi yagona yarim mustaqil organ.

Mazkur turkumlashga ko'ra, jahon mamlakatlari soliq organlari mustaqil faoliyat yuritishlari, ya'ni alohida vazirlik, qo'mita yoki davlat xizmati organi sifatida ajratilgan bo'lishi, u yoki bu vazirliklar tarkibidagi xizmat yoki agentlik sifatida mavjud bo'lishlari va nihoyat, davlatga, qonun chiqaruvchi va boshqa vakolatli tarkibga hisobot beruvchi mustaqil organ bo'lishlari mumkin.

Jahon mamlakatlari soliq organlarining tashkiliy tarkibi va bo'ysunuvi tamoyillariga ko'ra 180 ta mamlakat bo'yicha farqlanishining o'rganilishi ularning to'rtta mezon bo'yicha guruhlarga bo'linishini va O'zbekiston Respublikasi soliq tizimining aralash modelga xosligini ko'rsatdi.

Umuman, aktsizosti tovarlarni soliqqa tortishning samarali tadbirlariga xizmat qiluvchi davlat soliq xizmatining institutsional asoslarini takomillashtirishga oid xorij tajribalarini mamlakatimiz soliq amaliyotida qo'llash imkoniyatlarini baholashda ayrim jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim, deb hisoblaymiz.

Mazkur umumiy xulosalardan kelib chiqib, aktsizosti tovarlarni soliqqa tortishning samarali tadbirlariga xizmat qiluvchi davlat soliq xizmatining institutsional asoslarini takomillashtirishga oid xorij tajribalarini qo'llashga oid quyidagi takliflarni maqbul hisoblaymiz:

- soliq organlarining institutsional strukturasi har bir hududning iqtisodiyoti tuzilishiga, solikli daromadlarining mamlakat budjet daromadlaridagi o'rniga moslashtirib borish zarur;
- soliq organlariga xodimlar tomonidan soliq to'lovchilar haqidagi to'plangan har qanday ma'lumot (axborot)dan qo'shimcha tushumlar manbalarini aniqlash, shu orqali soliq solish ob'ekti ko'lamini va bazasini kengaytirish maqsadlari uchun foydalanish vakolatini berish lozim;
- soliq organlari, shu jumladan soliq organlari xodimlarining ish faoliyati samaradorligidan kelib chiqqan holda reyting baholash tizimini yo'lga qo'yish kerak;

- soliq organlari ish faoliyati samaradorligi natijalarini quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha baholash tizimini ishlab chiqish lozim: a) soliq to‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish sifati; b) qo‘shimcha soliq manbaalarini aniqlash va ularni soliqqa tortish; v) soliq profilaktikasini tashkil etish va uni o‘tkazish;

- soliq organlari faoliyati, ularning natijalari to‘g‘risidagi statistik hisobotlarni Xalqaro valyuta fondi, Iqtisodiy rivojlanish va xalqaro hamkorlik tashkiloti tomonidan aniqlanadigan uslubiyotlar asosida yuritishni yo‘lga qo‘yish lozim.

Hozirgi zamon jahon soliq amaliyotida yuzaga chiqayotgan muhim jihatlardan biri – QQS ma‘muriyatchiligining samarali tadbirlari tarkibida soliq to‘lovchilar tomonidan o‘z soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda ijro etishni rag‘batlantirishga oid yangi hamkorlik jihatlari, jumladan, soliq to‘lovchilarni ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilish tizimlarini kengaytirish, soliq to‘lovchilarga maslahatlar berish va ular bilimi, savodxonligini oshirish uchun Call-markazlar faoliyatidan foydalanish, hisobot bukletlari, deklaratsiyalar namunalarini bepul tarqatish va x.k. muhim o‘rin tutmoqda.

Soliq madaniyatining yuqori bo‘lishi rivojlangan davlatlar tajribasida, jumladan, Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniya kabi davlatlarda “Public relations”, ya’ni jamoatchilik munosabatlarini keng shakllanganligi bilan bevosita bog‘liqdir. Masalan, Yaponiyada hududiy davlat soliq idoralarida telefon orqali 600 dan ortiq soliq maslahatchilari xizmat ko‘rsatadi, soliq xizmati xodimlari bilan yuzma-yuz holda, yozma ravishda yoki veb saytlar orqali murojaat qilgan shaxslarga ham alohida xizmatlar ko‘rsatiladi. Shuningdek, mustaqil faoliyat ko‘rsatuvchi 70 mingga yaqin malaka sertifikatiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan soliq maslahati xizmati ko‘rsatiladi. Bu esa o‘z navbatida 1,8 mingdan ortiq kishiga 1 ta malaka sertifikatiga ega bo‘lgan mustaqil faoliyat yurituvchi shaxs to‘g‘ri kelishini ifoda etadi va soliq maslahati xizmatini yuqori darajada shakllanganligidan dalolat beradi.

Janubiy Koreyada esa Milliy soliq xizmati tarkibida soliq to‘lovchilar bilan ishlash bo‘yicha alohida Mijozning talabini qondirish (soliq to‘lovchilar murojatlari bo‘yicha ishlash) markazi tashkil etilgan. Milliy soliq xizmatining ushbu markazida soliq tizimida kamida 10 yil tajribaga ega bo‘lgan xodimlar ishlashi belgilab qo‘yilgan.

**1-jadval**

**Alohida olingan xorijiy mamlakatlar soliq amaliyotida davlatning QQSga oid samarali tadbirlari**

<b>Mamlakatlar</b>	<b>Tadbirning farqlovchi xususiyati</b>
Vengriya, Daniya, Norvegiya, Shvesiya	Asosiy e'tibor uzluksiz zanjirning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. QQS barqaror yuqori stavkada olinadi, tartibga solishning murakkab, lekin mustahkam tarkibiga ega, soliq stavkalari va imtiyozlar ko‘lami hududiy miqyosda farqlanishi mumkin.
Yevropa Ittifoqi davlatlari	Asosiy urg‘u bilvosita soliqlarga, xususan QQSga beriladi. Mazkur soliq budjetga doimiy va salmoqli tushumlarni ta'minlaydi, isloh qilishda o‘ta qat’iy va mustahkamdir. Evropa Ittifoqi ichki hududida QQSga nisbatan yagona xuquqiy mexanizm amal qiladi, biroq soliqning stavkalari va imtiyozlari a'zo-mamlakatlar o‘rtasida farq qiladi.

Yaponiya	Davlat tushumlarning asosiy qismini budjetdan tashqari fondlarga ajratmalar hisobiga, yanada aniqroq tarzda mehnatkashlarning ijtimoiy sug'urta va ta'minotiga ajratmalar orqali ta'minlaydi. Mazkur ajratmalar ham to'g'ri va egri soliqlar belgilariga egadir – yollanma ishchilar tomonidan ish xaqidan to'lanadi va ishlab chiqaruvchi tomonidan mahsulot va xizmatlar qiymatiga qo'shiladi.
Irlandiya	QQS stavkasining pastligi ham chetdan kapitalning oqib kelishini ham ichki ishlab chiqarish o'sishining yuqori sur'atlarini ta'minlaydi. Soliq maslaxatchiligi rivojlangan tizimi va itizomli soliq to'lovchilarga soliq ma'muriyatchiligining maxsus xizmat rejimi qo'llaniladi.
Buyuk Britaniya, Frantsiya	Alohida hududlar, ishlab chiqarish tarmoqlarini qo'llab-quvvatlash uchun QQSda rag'batlar tizimining mavjudligi: kapital qo'yilmalar uchun budjetdan bir martalik to'lovlar mavjudligi, ishlab chiqarish inshootlari qurish uchun davlat subsidiyalarining ajratilishi, soliq imtiyozlari va preferentsiyalari keng ko'laminig amal qilishi. Soliq madaniyatining yuqori darajasi shakllanganligi bois soliq to'lashning ixtiyoriyligi tamoyili ko'proq hayot tarziga aylanganligi bois intizomli soliq to'lovchilarga soliq organlari tomonidan ko'proq maslaxat berish tarzidagi xizmatlar amalga oshiriladi.
Germaniya	Kelgusi taraqqiyot uchun yuksak imkoniyatlarga ega bo'lishi kutilayotgan iqtisodiy qoloq hududlarga mablag'ajratayotgan kompaniyalarga yirik soliq imtiyozlari tizimining qo'llanilishi. Soliqlar bo'yicha to'lov intizomiga rioya qilinishini nazorat qilish tadbirlarining qat'iyiligi, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashga jinoiy javobgarlikning mavjudligi.

Umuman, alohida olingan xorijiy mamlakatlar soliq amaliyotida davlatning bevosita va bilvosita soliqlarga oid samarali tadbirlarini o'rganish hozirda muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

Ko'pchilik davlatlar (Frantsiya, Germaniya, Shveysariya) QQS ma'muriyatchiligi amaliyotida milliy soliq qonunchiligida *“soliq to'lovchilarning soliq tekshiruvlari jarayonida tegishli tushuntirish va asoslarni tekshiruvchilarga etkazib berishlarining majburiyligi”* belgilab qo'yilgan va ushbu talabning buzilishi qonuniy tarzda javobgarlik uchun asos bo'ladi.

Tovar(ish,xizmat)larni QQSga tortishning samarali tadbirlarida qator xorijiy mamlakatlar (Shveysariya, Frantsiya, Kanada) soliq amaliyotida unumli tarzda qo'llanilib kelayotgan muhim tajriba – *“soliq to'lovchilar soliq tarixiga oid ma'lumotlarning shaffofligi va ulardan foydalanuvchi davlat organlari uchun maxsus ruxsatnomasiz tizimli tarzda foydalana olish imkoniyatining yaratilganligi”*dir.

Mazkur tajribani mamlakatimiz soliq amaliyotga qo'llash O'zbekiston Respublikasi DSQ va davlat soliq organlari tarkibida soliq to'lovchilarga oid ma'lumotlarni to'plash, zarur ma'lumot bazasini to'liq shakllantirish va ularni tahlil qilib borish bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'lim va tarkiblarlar faoliyatini yo'lga qo'yish zaruriyati yuzaga keladi.



**Қўшилган қиймат солиғи тўлаётган давлатлар ва солиқ ставкалари**

Davlat nomi	QQS, %	Davlat nomi	QQS, %
Vengriya	27	Xitoy	16
Daniya, Norvegiya, Shvesiya	25	Turkmaniston, O'zbekiston	15 (12)
Gresiya	24	Qozog'iston,	12
Islandiya	24,5		12
Urugvay, Portugaliya	23	Qirg'iziston	10
Italiya	22		8
Gollandiya, Belgiya	21	Janubiy Koreya, Indoneziya, Livan	7
Buyuk Britaniya, Frantsiya, Avstriya, Rossiya, Belorussiya	20	Shveysariya	6
Germaniya	19	Tailand	5
Latviya, Isroil, Tojikiston	18	Dominikan Respublikasi	4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi malaka oshirish markazi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Ushbu zaruriyat tufayli QQS ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirishda qator xorijiy mamlakatlar (Kanada, Norvegiya, Meksika, Avstraliya, Frantsiya) *“soliq amaliyotida soliq xizmati organlarida lavozimlar reglamentini qayta ko'rib chiqish”*ni va har qaysi bo'lim ma'suliyati va vakolatlarini ifodalovchi xizmat Nizomlarini qonuniy tarzda yangidan tasdiqlanishini shart qilib qo'ydi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi kam miqdorda belgilanganligi guvohi bo'lamiz. Qozog'iston va Qirg'izistonda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 12 foiz, Janubiy Koreya, Indoneziya va Livanda 10 foiz, Shveysariyada 8 foiz, Tailandda 7 foiz stavkada soliq amaliyotini ko'rish mumkin. Ushbu davlatlarning iqtisodiyoti bugungi kunda rivojlangan davlatlar qatoridan joy olganligini va tadbirkorlarning soliq munosabatlarida ijobiy ishtirok etishi budjetning ortib borishiga xizmat qiladi(2-jadval).

Hozirgi kunda ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar tarmog'i kengayib borayotgan bir vaqtda ushbu korxonalarga 15 foizlik soliq stavkasini 10 foizga tushirib belgilash ham tadbirkorlarni yanada qo'llab quvvatlashga asos bo'lib xizmat qiladi. Buning natijasida qanchadan qancha hali ham yashirin iqtisodiyot orqali tadbirkorligi amalga oshirib, oxir oqibatida qonun oldida javob berishga to'g'ri kelayotganlarning oldi olinib, yosh tadbirkor-larning rivojlanishi hamda ishlab chiqarilgan mahsulotlarini dunyo miqiyosida raqobatdoshligi ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman, jahon soliq amaliyoti boy ijobiy tajribalarini inobatga olgan holda tovar(ish,xizmat)larni QQSga tortishning samarali tadbirlariga oid *soliq ma'muriyatchiligi samarali vositalarini joriy etishda “soliq to'lovchilar va soliq organlarining hamkorlikda o'sish”ini ta'minlashga qaratilgan talablarini qanoatlantirishga yo'naltirilgan ishonchli*

*hamkorlikni tashkil etish maqsadida soliq organlari xizmat ko'rsatish ochiqligi jarayonlarining shaffofligini oshirish lozim.* Bu sohada amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlar tarkibida quyidagilar ham inobatga olinishi darkor:

- soliq to'lovchilarga axborot xizmatlari ko'rsatish bo'yicha jarayonlarni metodologik ta'minlash;
- barcha kanallar va resurlar bo'yicha soliq to'lovchilarga interaktiv va axborot xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarini yaxshilash;
- soliq to'lovchining talabi va kutishi to'risidagi axborotlar tahlili asosida, servis xizmatlarining samarali va sifatini nazorat qiluvchi monitoring tizimini joriy etish;
- soliq to'lovchilarga qonunchilikda joriy qilingan va rejalashtirilayotgan o'zgartirishlar, meriy-huquqiy hujjatlar, sud qarorlari, sharx va tushuntirishlar yuzasidan doimiy va faol axborotlar berib borish;
- doimiy asosda tadbirkorlik va fuqarolik jamiyatlari, ekspertlar bilan hamkorlikda soliq qonunchiligidagi aktual maslalani muhokama qilib borish;
- soliq organlari faoliyatining moliyaviy malumotlarining ochiqligi va foydalanishga ruxsat etilishi shaffofligini oshirish;
- davlat-xususiy hamkorlik huquqi asosida xususiy biznes bilan hamkorlikda soliq xizmatlarini rivojlantirish;
- soliq inspektorlarining soliqlar tushumini yig'ish bo'yicha yanada samaraliroq ishlashiga erishish;
- soliqlar va soliq to'lovchilar bo'yicha aniq axborot olish;
- mavjud axborotni himoyalash.

Tovar(ish, xizmat)larni QQSga tortishning samarali tadbirlarida *oid soliq ma'muriyatchiligining strategik maqsadi* - soliq ma'muriyatchiligi usullari vositasida davlat soliq siyosatini ro'yobga chiqarish; soliq to'lovchilarning o'z soliq majburiyatlarini to'liq ado etishlarini nazorat qilish, davlat budjetiga tushumlar barqarorligini ta'minlashdan iborat.

Buning uchun quyidagilarga rioya etish zarur: soliq to'lovlarining o'z vaqtida va bir xildagi tushumini ta'minlash, ma'muriy tartib-taomillarni maksimal darajada kamaytirish va soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va iqtisodiyotda xufyona aylanmalarni qisqartirish hisobiga budjetlarning daromad qismini barqaror shakllantirish.

Ma'lumki, tovar(ish,xizmat)larni QQSga tortishning samarali tadbirlariga oid soliq ma'muriyatchiligining samarali vosita va dastaklarini hayotga tatbiq etish hozirgi kunda uning *mavjud usullari tizimi* (boshqarish, xabardor qilish, tarbiyalash, maslahat berish, rag'batlantirish, imtiyoz berish, nazorat qilish, undash (majburlash), jazolash)ni takomillashtirishni talab etadi va buning uchun quyidagi jihatlar e'tiborga olinishi zarur:

- soliqqa tortish ishlarini yuritishda soliq tizimining eng asosiy vazifalari quyidagilardan iborat soliq qonunchiligi bajarilishini nazorat qilish soliqlarni to'g'ri va to'liq xisoblanishini nazorat qilish;
- soliqlarni davlat budjetiga to'lanishini nazorat qilish;
- soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha tahlil qilish va ta'sirchan choralar ishlab chiqish.

Jahon soliq amaliyotida ham QQSning mohiyati doimo bilvosita soliqlar doirasida o'rganib chiqilgan. Shu bois QQSning iqtisodiy mohiyati davlat bilan yuridik shaxslar o'rtasida vujudga keluvchi ob'ektiv majburiy to'lovlarga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali xarakterlanadi.

**Xulosa va takliflar.** Qo'shilgan qiymat solig'ini takomillashtirish yo'llarini tahlil qilish jarayonida quyidagi taklif va tavsiyalarni ta'kidlash joiz hisoblanadi:

**Birinchidan**, bugungi kunda iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi kam miqdorda belgilanganligi ushbu davlatlarning budjet daromadlari va tadbirkorlarning oshib borishiga xizmat qilmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda ham ishlab chiqarish va qayta ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar tarmog'i kengayib borayotgan bir vaqtda ushbu korxonalariga 15 foizlik qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini 10 foizga tushirish taklif etiladi;

**Ikkinchidan**, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat soliq inspeksiyalari mas'ul xodimlari tomonidan hisoblangan soliq summasiga nisbatan kechiktirilgan har bir kun uchun penya (moliyaviy jazo) qo'llanilishi bekor qilish tavsiya etiladi;

**Uchinchidan**, korxonalarining aylanma mablag'lari ortib borishi bilan daromadlarning ham ortib broishiga xizmat qilishi maqsadida aylanma mablag'lariga chegaraviy miqdor 500 mlrd.so'm qilib belgilash va aylanma mablag'lari 500 mlrd.so'mdan oshgan qismiga soliq stavkasining imtiyozli shaklini joriy qilishni taklif etiladi;

Yuqoridagi taklif va tavsiyalardan kelib chiqib, xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, qo'shilgan qiymat solig'ini takomillashtirishda xorijiy davlatlarning soliq amaliyoti tajribasidan foydalangan holda, soliq stavkalarining pasaytirilishi, hisoblangan soliq summasiga nisbatan kechiktirilgan har bir kun uchun penya (moliyaviy jazo) qo'llanilmasligi, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi korxonalariga aylanma mablag'larining chegaraviy miqdordan oshgan qismiga soliq stavkasining imtiyozli shaklini qo'llash kabi takliflarning amalga oshirilishi natijasida, tadbirkorlarni yanada qo'llab quvvatlash, insofli va halol tadbirkorlarning ko'payishi, qo'shilgan qiymat solig'i undirilishi bilan bog'liq soliqdan qochish yo'llarini kamayishi va budjet daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Алиев Б. Х. Налоговые системы зарубежных стран / Б.Х. Алиев, Х.М. Мусаева. - М.:Юнити-Дана, 2013. – 216 с.
2. Брюммерхофф, Д. Теория государственных финансов / Д. Брюммерхофф. – Владикавказ: Пионер-Пресс, 2001. – 480 с.
3. А.А. Вотчаев, С.В. Барулин, Е.А. Ермакова, А.А. Степаненко. - Саратов: СГСЭУ, 2010. – 170 с.
4. Голик Е.Н. Косвенные налоги в условиях институциональных преобразований налоговой системы Российской Федерации: Монография / Ростовский государственный экономический университет «РИНХ». – Ростов-на-Дону, 2007. – 242 с.
5. Князев, В.Г. Налоговые системы зарубежных стран: учеб. пособие / В.Г. Князев, Д.Г. Черник. - М.: Закон и право, Юнити, 1997. – 81с.
6. Гадов Э. ва бошқ. Солиққа оид хатолар. – Т.: "Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси" нашриёт уйи, 1996. -128 б.



7. Гатаулин Ш. Солиқлар ва солиққа тортиш. – Т.: ДСҚ, 1996. – 241 б.
8. Завалишина И. Солиқлар: назария ва амалиёт. – Т.: “Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси”, 2005. – 544 б.
9. Ваҳобов А., Маликов Т. Молия. – Т.: «НОШИР», 2012. – 712 б.
10. Маликов Т., Олимжонов О. Молиявий менежмент. – Т.: Академия, 1999. – 254 б.
11. Тошматов Ш. Корхоналарни ривожлантиришда солиқлар роли: Монография. – Т.: Фан ва технология, 2008. – 204 б.
12. Sancak, C., R. Velloso, and J. Xing. Tax Revenue Response to the Business Cycle,» *IMF Working Paper 10/71 (Washington: International Monetary Fund)*. 2010- pp. 12-27.
13. Ueda J. The Evolution of Potential VAT Revenues and C-Efficiency in Advanced Economies. *International Monetary Fund, Working Paper WP/17/158*, 2017 – pp. 1-38.
14. Guedes de Oliveira F., and L. Costa, (2015). The VAT Laffer Curve and the Business Cycle in the EU27: An Empirical Approach. *Economic Issues, Vol. 20(2)*, 2015 – pp. 29-44
15. Dudine P., and J. Jalles. How Buoyant Is the Tax System? New Evidence from a Large Heterogeneous Panel. *IMF Working Paper 17/4, International Monetary Fund*. 2017.
16. Keen M. The Anatomy of the VAT. *National Tax Journal, Vol. 66*, 2013 – pp. 423-446.
17. Ebrill L., M. Keen, J. Bodin, and V. Summers, The Modern VAT. Washington, D.C.: International Monetary Fund. ISBN 1-58906-026-1. 2001
18. Абдувоҳидов А. А. и др. ҲУДУДЛАРДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ КРЕДИТЛАШ СИЁСАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 46-52.
19. Нурмухаммидова, М. Х., Абдувоҳидов, А. А., & Мамажонова, С. В. (2021). ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИНГ ҲОЗИРГИ БОСҚИЧИДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШ АСОСЛАРИ. *ТА’ЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ONLAYN ILMİY JURNALI*, 1(6), 401-417.
20. Kamilova S. PROBLEMS AND SOLUTIONS OF DIGITALIZATION OF THE BANKING SYSTEM //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2022. – Т. 23. – №. Maxsus\_son. – С. 102-107.
21. Абдувоҳидов А. А. и др. САНОАТ СИЁСАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMİY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 40-45.